



SPOUSES' MAINTENANCE OBLIGATIONS: LEGAL ESSENCE, MECHANISM, AND DIRECTIONS FOR IMPROVEMENT

Akmaljon Tursunpulatov

PhD, Academic Lyceum of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, Namangan

E-mail: akmaltusunpolatov@gmail.com

Namangan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: alimony, spouses, family law, material support, alimony obligation, incapacity for work, judicial practice, family legislation, legal protection, social justice.

Received: 13.06.26

Accepted: 14.06.26

Published: 15.06.26

Abstract: The article provides a comprehensive analysis of the legal nature of alimony obligations between spouses, the grounds for their emergence, and the procedures and conditions established by the Family Code of the Republic of Uzbekistan. The author examines the spouses' duty of mutual material support, the voluntary and judicial mechanisms of alimony recovery, the alimony rights of former spouses, and the legal consequences of failure to fulfil the obligation. Certain problems of judicial practice are highlighted, and scientific and practical proposals for improving family legislation are formulated.

ER-XOTINNING ALIMENT MAJBURIYATLARI: HUQUQIY MOHIYATI, MEKANIZMI VA TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

Akmaljon Tursunpo‘latov

O‘zbekiston Respublikasi IIV Namangan akademik litseyi, PhD

E-mail: akmaltusunpolatov@gmail.com

Namangan, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: aliment, er-xotin, oila huquqi, moddiy ta‘minot, aliment majburiyati, mehnatga layoqatsizlik, sud amaliyoti, oila qonunchiligi, huquqiy himoya, ijtimoiy adolat.

Annotatsiya: Ushbu maqolada er-xotin o‘rtasidagi aliment majburiyatlarining huquqiy mohiyati, ularning vujudga kelish asoslari hamda O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksida belgilangan tartib va shartlar har

tomonlama tahlil qilinadi. Muallif er-xotinning o'zaro moddiy ta'minlash majburiyati, aliment undirishning ixtiyoriy va sud tartibidagi mexanizmlari, sobiq er-xotinlarning aliment huquqlari hamda majburiyatni bajarmaslikning huquqiy oqibatlariga to'xtaladi. Shuningdek, sud amaliyotida uchraydigan ayrim muammolar yoritilib, oilaviy qonunchilikni takomillashtirishga oid ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

ОБЯЗАННОСТИ СУПРУГОВ ПО СОДЕРЖАНИЮ: ПРАВОВАЯ ПРИРОДА, МЕХАНИЗМ И НАПРАВЛЕНИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ

Акмалжон Турсунпулатов

PhD, Академический лицей Министерства внутренних дел

Республики Узбекистан, г. Наманган

E-mail: akmaltusunpolatov@gmail.com

Наманган, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: алименты, супруги, семейное право, материальное содержание, алиментное обязательство, нетрудоспособность, судебная практика, семейное законодательство, правовая защита, социальная справедливость.

Аннотация: В статье всесторонне анализируются правовая сущность алиментных обязательств между супругами, основания их возникновения, а также порядок и условия, установленные Семейным кодексом Республики Узбекистан. Автор рассматривает обязанность супругов по взаимному материальному содержанию, добровольный и судебный механизмы взыскания алиментов, алиментные права бывших супругов, а также правовые последствия неисполнения обязательства. Освещаются отдельные проблемы судебной практики и формулируются научно-практические предложения по совершенствованию семейного законодательства.

Kirish. Oila jamiyatning asosiy bo'g'ini bo'lib, uning mustahkamligi davlat va jamiyatning barqaror taraqqiyotini ta'minlovchi muhim shartlardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida oila, onalik, otalik va bolalik davlat himoyasida ekanligi mustahkamlangan bo'lib, mazkur konstitutsiyaviy kafolat oilaviy munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilikning mazmun-mohiyatini belgilab beradi. So'nggi yillarda mamlakatimizda oila institutini

mustahkamlash, xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonda oilaning iqtisodiy negizini mustahkamlashda muhim o'rin tutuvchi aliment munosabatlari alohida ahamiyat kasb etadi .

Oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlar o'zaro hurmat, g'amxo'rlik va moddiy qo'llab-quvvatlash tamoyillariga asoslanadi. Oilaviy-huquqiy munosabatlarning muhim institutlaridan biri aliment majburiyatlaridir. Aliment majburiyatlari nafaqat ota-onalarning voyaga yetmagan farzandlari oldidagi majburiyatlarini, balki er-xotinning bir-biriga nisbatan moddiy ta'minot berish majburiyatlarini ham qamrab oladi. Er-xotinning aliment majburiyatlari oiladagi ijtimoiy adolatni ta'minlash, yordamga muhtoj shaxslarni moddiy qo'llab-quvvatlash hamda ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Aliment majburiyatlarining nazariy va amaliy jihatlari oila huquqiga oid darslik va ilmiy adabiyotlarda muayyan darajada yoritilgan. Biroq er-xotin hamda sobiq er-xotinlar o'rtasidagi aliment munosabatlarining huquqiy tabiati, ularni undirish mexanizmi va sud amaliyotida yuzaga keladigan muammolar tizimli tarzda yetarlicha tadqiq etilmagan. Bu esa mazkur mavzuning dolzarbligini yanada oshiradi.

Tadqiqotning maqsadi va usullari. Tadqiqotning maqsadi er-xotinning aliment majburiyatlari institutining huquqiy mohiyatini ochib berish, amaldagi qonunchilik normalarini tahlil qilish hamda uni takomillashtirishga doir asosli takliflar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotda qiyosiy-huquqiy, tizimli-strukturaviy, rasmiy-yuridik va mantiqiy tahlil usullaridan foydalanildi.

Er-xotinning o'zaro huquq va majburiyatlari. Oila kodeksiga muvofiq, er va xotin oilada teng huquqlarga ega bo'lib, ular oilaning moddiy farovonligi, bolalar tarbiyasi va oila manfaatlarini ta'minlashda birgalikda mas'ul hisoblanadilar. Nikoh davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab er-xotin o'rtasida shaxsiy nomulkiy va mulkiy huquqiy munosabatlar vujudga keladi .

Er-xotinning o'zaro moddiy yordam ko'rsatish majburiyati oilaviy munosabatlarning ajralmas qismidir. Ushbu majburiyat er-xotinning birgalikda yashashidan, umumiy xo'jalik yuritishidan va oila manfaatlarini ta'minlash zaruratidan kelib chiqadi. Agar turmush o'rtoqlardan biri yordamga muhtoj bo'lsa, ikkinchi tomon imkoniyatidan kelib chiqib unga moddiy ko'mak ko'rsatishi lozim. Bu majburiyat avvalo o'zaro ixtiyoriylik va o'zaro hurmat asosida bajariladi.

Biroq ayrim hollarda er yoki xotin ushbu majburiyatini ixtiyoriy ravishda bajarmasligi mumkin. Ana shunday vaziyatlarda qonunchilik yordamga muhtoj shaxsning huquqlarini himoya qilish maqsadida aliment undirish institutini nazarda tutadi. Demak, aliment majburiyati er-

xotinning o‘zaro ta‘minlash majburiyatining huquqiy himoya bilan ta‘minlangan, majburlash kuchiga ega bo‘lgan ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ladi.

Aliment tushunchasi va uning huquqiy mohiyati. Aliment — bu qonunda belgilangan hollarda bir shaxsning boshqa shaxs foydasiga muntazam ravishda moddiy ta‘minot berish majburiyatidir. Alimentning asosiy maqsadi moddiy yordamga muhtoj shaxslarning munosib yashash sharoitlarini ta‘minlashdan iborat. Aliment majburiyati o‘zining quyidagi belgilari bilan tavsiflanadi:

- shaxsiy xarakterga ega bo‘lib, boshqa shaxsga o‘tkazilmaydi va meros tarkibiga kirmaydi;
- qonunda yoki taraflar kelishuvida belgilangan asoslarda vujudga keladi;
- muntazam (davriy) tarzda to‘lanadi va o‘ziga xos ta‘minlovchi vazifani bajaradi;
- bevosita oilaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadi va o‘zaro g‘amxo‘rlik tamoyiliga asoslanadi.

Er-xotin o‘rtasidagi aliment majburiyatlari Oila kodeksining 15-bobida — “Er-xotinlar va sobiq er-xotinlarning aliment majburiyatlari” deb nomlangan bobida tartibga solinadi. Alimentning o‘ziga xos xususiyati shundaki, u mulkiy xarakterga ega bo‘lsa-da, oilaviy munosabatlardan kelib chiqadi hamda shaxsiy ishonch va yaqinlik bilan uzviy bog‘liqdir.

Aliment olish huquqiga ega bo‘lgan er yoki xotin

O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 117-moddasiga ko‘ra, er va xotin bir-birini moddiy ta‘minlashga majburdirlar. Bunday yordam berishdan bosh tortilgan taqdirda, zarur mablag‘ga ega bo‘lgan turmush o‘rtog‘idan sud orqali aliment talab qilishga quyidagi shaxslar haqli hisoblanadi :

- mehnatga layoqatsiz va yordamga muhtoj er yoki xotin;
- homilador xotin hamda umumiy farzand tug‘ilgan kundan boshlab uch yil davomida bolani parvarishlayotgan xotin;
- nogironligi bo‘lgan umumiy bolani parvarishlayotgan, moddiy yordamga muhtoj er yoki xotin (bola voyaga yetgunga qadar, bolaligidan nogiron bo‘lganda esa muddat bilan cheklanmaydi).

Mehnatga layoqatsizlik shaxsning yoshi, sog‘lig‘i holati yoki qonunda belgilangan boshqa asoslar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Sud aliment tayinlash masalasini ko‘rib chiqishda da‘vogarning yordamga muhtojligini va javobgarning real moddiy imkoniyatlarini har tomonlama o‘rganadi. Ya‘ni, aliment majburiyati yuzaga kelishi uchun ikki shartning birgalikda mavjud

bo'lishi talab etiladi: bir tomonning moddiy yordamga muhtojligi va ikkinchi tomonning bunday yordamni ko'rsatishga real imkoniyati.

Aliment to'lashning ixtiyoriy va sud tartibi

Er-xotin aliment to'lash masalasini o'zaro kelishuv asosida hal qilishlari mumkin. Aliment to'lash to'g'risidagi kelishuv yozma shaklda tuzilib, notarial tartibda tasdiqlanadi. Bunday kelishuv taraflarning huquq va majburiyatlarini, aliment miqdori, shakli hamda to'lash tartibini aniq belgilab beradi va nizolarning oldini olishga xizmat qiladi. Kelishuv qonun normalariga va yordamga muhtoj shaxsning manfaatlariga zid bo'lmasligi shart.

Agar taraflar o'rtasida kelishuvga erishilmasa, aliment sud tartibida undiriladi. Aliment undirish to'g'risidagi da'vo arizasi fuqarolik ishlari bo'yicha sudga taqdim etiladi. Sud ishni ko'rib chiqishda quyidagi holatlarni hisobga oladi:

- taraflarning daromadlari va mol-mulkiy ahvoli;
- ularning oilaviy ahvoli;
- sog'lig'i holati va mehnatga layoqati;
- boqimanda shaxslarning mavjudligi;
- ishning mohiyatiga daxldor bo'lgan boshqa muhim holatlar.

Oila kodeksining 119-moddasiga muvofiq, er-xotin (sobiq er-xotin)dan undiriladigan aliment miqdori har oyda to'lanadigan qat'iy pul summasida belgilanadi. Bunda sud taraflarning mol-mulkiy va oilaviy ahvolidan hamda e'tiborga loyiq boshqa manfaatlaridan kelib chiqadi. Belgilangan aliment, sud hujjatlarini ijro etish to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq, majburiy tartibda ijro etiladi .

Sobiq er-xotinlarning aliment majburiyatlari. Nikohning bekor qilinishi har doim ham aliment majburiyatlarining tugashiga olib kelmaydi. Oila kodeksining 118-moddasiga ko'ra, ayrim hollarda sobiq turmush o'rtoqlar o'rtasida ham aliment huquqiy munosabatlari saqlanib qoladi. Xususan, nikohdan ajralganidan keyin sobiq turmush o'rtog'idan aliment talab qilishga quyidagi shaxslar haqli bo'lishi mumkin :

- homiladorlik davrida hamda umumiy farzand tug'ilgan kundan boshlab uch yil mobaynida sobiq xotin;
- nogironligi bo'lgan umumiy bolani parvarishlayotgan, moddiy yordamga muhtoj sobiq er yoki xotin;
- nikoh bekor qilingunga qadar yoki nikoh bekor qilingan kundan boshlab bir yil mobaynida mehnatga layoqatsiz bo'lib qolgan, yordamga muhtoj sobiq er yoki xotin;

- er-xotin uzoq muddat nikohda bo‘lgan taqdirda, nikoh bekor qilingach besh yildan kechiktirmay pensiya yoshiga yetgan va yordamga muhtoj bo‘lgan sobiq er yoki xotin.

Bunday holatlarda sud aliment tayinlash masalasini har bir ishning aniq holatlaridan kelib chiqib hal qiladi. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, sobiq er-xotinlar o‘rtasidagi aliment huquqi fuqarolar tomonidan ko‘pincha yetarlicha anglanmaydi, bu esa amaliyotda ushbu institutdan kam foydalanilishiga sabab bo‘lmoqda.

Aliment majburiyatidan ozod qilish va aliment olish huquqining tugashi

Oila kodeksining 120-moddasiga muvofiq, sud ayrim hollarda er yoki xotinni bir-biriga ta’minot berish majburiyatidan ozod qilishi yoxud bu majburiyatni muayyan muddat bilan cheklashi mumkin, Jumladan, agar:

- aliment talab qilayotgan turmush o‘rtog‘ining mehnatga layoqatsizligi spirtli ichimliklar yoki giyohvand moddalarni suiiste‘mol qilishi yoxud qasddan jinoyat sodir etishi natijasida yuzaga kelgan bo‘lsa;
- er-xotin nikohda qisqa muddat birga yashagan bo‘lsalar;
- aliment talab qilayotgan turmush o‘rtog‘i oilada nomunosib xulq-atvor namoyon etgan bo‘lsa.

Oila kodeksining 121-moddasiga ko‘ra, aliment olish huquqi quyidagi hollarda tugaydi: aliment tayinlashga asos bo‘lgan shart-sharoitlar bartaraf etilganda, shuningdek aliment oluvchi sobiq er yoki xotin yangidan nikohdan o‘tganda. Bu normalar aliment institutining adolat va asoslilik tamoyillariga muvofiqligini ta’minlaydi .

Aliment majburiyatlarini bajarmaslik oqibatlari

Aliment majburiyatlarini bajarmaslik qonunchilikda belgilangan javobgarlikka sabab bo‘ladi. Aliment to‘lashdan bo‘yin tovlagan shaxslarga nisbatan majburiy ijro choralari qo‘llaniladi. Jumladan:

- ish haqi va boshqa daromadlardan ushlab qolish;
- qarzdorning mol-mulkiga undiruvni qaratish;
- bank hisobvaraqlaridagi mablag‘larni cheklash va undirish;
- qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa majburlov choralari.

Aliment to‘lashdan zararkunandalik bilan bo‘yin tovlash qonunchilikda belgilangan hollarda ma’muriy yoki jinoiy javobgarlikka ham sabab bo‘lishi mumkin. Mazkur choralar avvalo aliment oluvchining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga, shuningdek aliment majburiyatining real ijro etilishini ta’minlashga qaratilgan.

Sud amaliyotidagi ayrim muammolar va ularni hal etish yo'llari. Er-xotinning aliment majburiyatlarini tartibga solishda amaldagi qonunchilik etarlicha mukammal bo'lsa-da, sud amaliyotida bir qator muammolar saqlanib qolmoqda. Quyida ulardan ayrimlari va ularni hal etishga doir takliflar keltiriladi.

Birinchi, aliment miqdorini qat'iy pul summasida belgilashda javobgarning haqiqiy daromadini aniqlash murakkabligicha qolmoqda. Norasmiy bandlik sharoitida shaxslar o'z daromadini yashirishi, bu esa aliment miqdorining asossiz ravishda kam belgilanishiga olib kelishi mumkin. Ushbu muammoni hal etish maqsadida sud organlari, soliq va bank tuzilmalari o'rtasida daromadlar to'g'risida elektron axborot almashinuvini joriy etish maqsadga muvofiq.

Ikkinchi, qat'iy summada belgilangan aliment inflyatsiya sharoitida o'zining real qiymatini yo'qotib boradi. Shu bois aliment miqdorini bazaviy hisoblash miqdori yoki eng kam mehnat haqiga bog'lab indeksatsiyalashning aniq mexanizmini qonunchilikda mustahkamlash o'rinli bo'ladi.

Uchinchi, fuqarolarning, ayniqsa sobiq er-xotinlarning aliment huquqlari to'g'risidagi huquqiy xabardorligi pastligi tufayli aliment to'lash to'g'risidagi notarial kelishuv institutidan kam foydalanilmoqda. Aholi o'rtasida huquqiy targ'ibotni kuchaytirish va ushbu kelishuvlarni rasmiylashtirishni soddalashtirish nizolarning oldini olishga xizmat qiladi.

To'rtinchi, aliment to'g'risidagi sud qarorlarining ijro etilish samaradorligini oshirish zarur. Majburiy ijro choralarini raqamlashtirish, qarzdorlarning mol-mulki va daromadlari to'g'risidagi ma'lumotlarni yagona elektron tizim orqali olish ijro intizomini mustahkamlaydi.

Shuningdek, sud amaliyotini muntazam umumlashtirib borish va O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi tushuntirishlarini davr talablari asosida yangilab borish er-xotinning aliment majburiyatlariga oid normalarni bir xilda qo'llashni ta'minlaydi.

Xulosa. Er-xotinning aliment majburiyatlari oilaviy huquqning muhim institutlaridan biri bo'lib, oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro yordam, g'amxo'rlik va ijtimoiy himoya tamoyillarining huquqiy ifodasidir. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 15-bobida belgilangan normalar yordamga muhtoj shaxslarning, avvalo mehnatga layoqatsiz turmush o'rtoqlar, homilador va kichik yoshli bolani parvarishlayotgan ayollar hamda nogironligi bo'lgan bolani tarbiyalayotgan ota-onalarning manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan.

Aliment majburiyatlarining o'z vaqtida va to'liq bajarilishi oiladagi barqarorlikni ta'minlaydi, ehtiyojmand shaxslarning munosib hayot kechirishi uchun zarur shart-sharoit yaratadi hamda oilaviy munosabatlarda ijtimoiy adolatni qaror toptirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, aliment miqdorini indeksatsiyalash, javobgarning daromadini aniqlash mexanizmini

takomillashtirish, fuqarolarning huquqiy xabardorligini oshirish hamda sud qarorlari ijrosi samaradorligini ta'minlash bo'yicha ilgari surilgan takliflarni amalga oshirish er-xotinning aliment majburiyatlari institutini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi (1998-yil 30-aprel, amaldagi tahrir). – Lex.uz milliy huquqiy axborot bazasi.
3. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi (amaldagi tahrir). – Toshkent.
4. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi (amaldagi tahrir). – Toshkent.
5. O'zbekiston Respublikasining “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida”gi Qonuni. – Toshkent.
6. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2011-yil 20-iyuldagi 6-sonli “Sudlar tomonidan nikohdan ajratishga oid ishlar bo'yicha qonunchilikni qo'llash amaliyoti to'g'risida”gi qarori.
7. Oila huquqi: Darslik / Yuridik oliy ta'lim muassasalari uchun. – Toshkent: Adolat, 2022.
8. Tojiboyeva D., Islomov B. Oila huquqi. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2021.